

O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA SO‘Z-GAPLARNING PRAGMATIK  
XUSUSIYATLARI

Ma‘mun universiteti Filologiya fakulteti  
“G‘arb tillari va adabiyoti”  
kafedrası o‘qituvchisi  
Rajapov Bobur Odilbekovich

**Annotatsiya:** Mazkur maqola o‘zbek va ingliz tillaridagi so‘zlar va gaplarning pragmatik xususiyatlarini analiz qiladi. Shuningdek, inglizcha matnlardagi pragmatikaga oid xususiyatlarini o‘zbek tilidagi gaplar bilan solishtirilgan holda asoslab beriladi. Maqoladan ko‘zlangan maqsad shuki, o‘zbek va ingliz tillaridagi gaplarda pragmatik ekvivalentikka erishish hisoblanadi. Maqola uchun manba sifatida turli xil lug‘atlar, qo‘llanmalar va soha vakillarining ilmiy ishlari olingan.

**Kalit so‘zlar:** Pragmatika, tilshunoslik, pragmatik ekvivalentlik, tarjimashunoslik,

PRAGMATIC PROPERTIES OF WORDS IN UZBEK AND ENGLISH

**Abstract:** This article analyzes the pragmatic features of words and phrases in Uzbek and English. It also substantiates the pragmatic features of English texts by comparing them with Uzbek ones. The aim of the article is to achieve pragmatic equivalence in Uzbek and English. The source of the article is various dictionaries, manuals and scientific works of the industry.

**Keywords:** Pragmatics, linguistics, pragmatic equivalence, translation studies

ПРАГМАТИЧЕСКИЕ СВОЙСТВА СЛОВ В УЗБЕКСКОМ И АНГЛИЙСКОМ  
ЯЗЫКАХ

**Аннотация:** В данной статье анализируются прагматические особенности слов и словосочетаний в узбекском и английском языках. Также обосновываются прагматические особенности английских текстов путем сравнения их с узбекскими. Цель статьи – добиться прагматической эквивалентности в узбекском и английском языках. Источником статьи являются различные словари, пособия и научные труды отрасли.

**Ключевые слова:** прагматика, лингвистика, прагматическая эквивалентность, переводоведение.

KIRISH

Bugungi kunda ingliz tilining inson hayotidagi o‘rni va ahamiyati haqida bahslashishga hojat yo‘q. Korxonalar hamkorlikning yangi shakliga o‘tmoqda – ularning xorijiy hamkorlar bilan bevosita aloqalari yo‘lga qo‘yilmoqda, qo‘shma ilmiy-tadqiqot va tajriba-sinov ishlari olib borilmoqda. Shu maqsadda olimlar va mutaxassislardan iborat qo‘shma jamoalar tashkil etilmoqda. Chet tilini biladigan mutaxassislarni xorijga ishlashga yuborish maqsadga muvofiqligi tobora oydinlashmoqda. Bu sizga mamlakat, sanoat, korxonaga haqida ma'lumot olishga yordam beradi. Bir so‘z bilan aytganda, ingliz tili barcha sohalarda o‘z ahamiyati va yuqori o‘rniga ega. Masalan, tarjimashunoslik sohasini oladigan bo‘lsak, bugungi kunga kelib, o‘zbek tili leksikasi va so‘z boyligi inglizcha matnlardagi neologizmlar orqali ortib borishini ko‘rishimiz mumkin.

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

**Pragmatika** (yun. pragma, pragmatos — ish, harakat) — semiotika va tilshunoslikning nutqda til belgilarining amal qilishini oʻrganuvchi sohasi; boshqacha aytganda, muayyan belgilar tizimini oʻzlashtirib, undan foydalanuvchi sub'yektlarning ayni shu belgilar tizimiga munosabatini oʻrganuvchi fan tarmogʻi. Pragmatika haqidagi asosiy gʻoya amerikalik olim Ch. Pirs tomonidan oʻrtaga tashlangan; yana bir amerikalik olim Ch. Morris ushbu gʻoyani rivojlantirgan va "P." terminini semiotika boʻlimlaridan birining nomi sifatida amaliyotga kiritgan.

**Tilshunoslik** yoki lingvistika tillarni oʻrganuvchi fandır. Tilshunoslikning amaliy va nazariy turlari mavjud boʻlib, nazariy tilshunoslik tilning strukturasi (grammatikasi) va uning maʼnosi (semantikasini) oʻrganadi.

**MUHOKAMA VA NATIJALAR:** Oʻzbek tilida soʻz-gaplar oʻz ichida bir necha maʼnoviy guruhga ajraladi: modallar, undovlar, tasdiqva inkor soʻzlar, taklif va ishora soʻzlar kiradi. Soʻz - gaplar bir soʻzdan iborat boʻlib, tarkibga ajrala olmaydigan, boshqa soʻzlar bilan kengaya olish imkoniyatiga ega boʻlmagan gaplar soʻz - gaplardir. Soʻz - gaplar sodda gapning alohida bir koʻrinishi sanaladi. Ular asosan dialogli matnlarda qollanadi. Masalan:

- Sogʻligingiz yaxshimi?
- Qabulga birga kiramizmi?
- Rahmat, bolam.
- Ha.

Kishilar oʻrtasidagi oddiy muomalada tez-tez ishlatilib turadigan bir soʻz yoki iboralar soʻz-gaplar vazifasida qollanadi: assalomu alaykum, marhamat, hormang, xush kelibsiz, labbay, qulluq, yoqimli ishtaha kabi. Pragmatika tilshunoslikda til belgilarining nutqda ishlatilishi va ishlashini belgi va uning foydalanuvchisi oʻrtasidagi munosabatlar nuqtayi nazaridan, shuningdek, nutq aktining ishtirokchilari xususiyatlariga bogʻliq boʻlgan til birliklarini yaratish xususiyatlarini oʻrganadigan tilshunoslik sohasidir. Bu sohaning asosiy masalasi turli til sathlarida, yaʼni ularning nutqda qoʻllanishining turli sharoitlarida turli til komponentlarining leksik maʼnosini aniqlashdan iborat. Bunda asosiy obyekt – nutq aktlari boʻlib, ular asosida nutq aktlari nazariyasining tezislari atroflicha oʻrganiladi. Boshqacha aytganda, pragmatikada obyektiv nutq komponentlarining muloqot vaqtida qoʻllaniladigan usullari va ularning oʻzaro taʼsiri oʻrganiladi.

**XULOSA:** Xulosa qilib aytganda, oʻzbek tilidagi soʻz-gaplarning nutqda bayon qilinishi yaʼni uning pragmatik xususiyatlari bugungi kunda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ingliz tilidagi soʻz-gaplar oʻzbek tilidagi gaplarning ishlatilishiga qaraganda tubdan farq qiladi, ammo ularning pragmatik xususiyatlari bir biriga oʻxshashdir yaʼni nutqda soʻz-gaplar inson inkorini, taajubini va boshqa maʼnodagi qisqa gaplarini bayon etishini ifodalaydi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdullayeva G.G. Sinxron tarjima-murakkab kognitiv jaraynlar majmui//Chet tillarni oʻqitishda kommunikativ yondashuv: til, tafakkur, madaniyat. Buxoro. BuxDU. 2016.
2. Panu Kosonen. Pragmatic adaptation in translating skeptics vs creationists: a formal debate from English into Finnish. University of Jyväskylä Department of Languages English April 2011.
3. Dildora Kaxarovna Eshtayeva, "Pragmatika tushunchasi va uning tarjimadagi talqinini oʻrganish" maqolasi.
4. <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Pragmatika>
5. <http://www.hozir.org/nutq-jarayonida-noverbal-vositalarning-pragmatik-hususiyatlari.html?page=4>